

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INOVASIYALAR VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

J.Karshibayev

2023 yil "30" avgust



**RANGTASVIR**

**FANI SILLABUSI**

**Bilim sohasi:** 200000 - San'at va gumanitar fanlar

**Ta'lif sohasi:** 210000 - San'at

**Ta'lif yo'nalishi:** 60210800 – Amaliy san'at: (badiiy kulolchilik)

**Guliston-2023**

# MODUL / FAN SILLABUSI



**San'atshunoslik fakulteti**



**60210800– Amaliy san'at**

**(badiiy kulolchilik) ta'lif**

**yo`nalishi**

<b>Fan nomi</b>	Rangtasvir
<b>Fan turi</b>	Majburiy
<b>Fan kogi</b>	Rang 1744
<b>Yil</b>	4
<b>Semester</b>	1..7
<b>Ta'lif shakli</b>	Kunduzgi
<b>Mashg`ulot shakli va ajratilgan soat</b>	1320
<b>Ma'ruza:</b>	-
<b>Amaliy mashg`ulot:</b>	660
<b>Seminar :</b>	-
<b>Mustaqil ta'lif:</b>	660
<b>Kreditlar miqdori</b>	44
<b>Baholash shakli</b>	Amaliy ish
<b>Fan tili</b>	O'zbek

## FANNING MAQSADI

FM 1	<b>Fanni o'qitishdan maqsad-</b> talabalarning Rangtasvir fani to'g'risidagi ilmiy, nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirish.
FM 2	<b>Fanning vazifasi</b> -“Rangtasvir” fani o'quv jarayoni mobaynidagi o'quv mashg`ulotlarida talabalar antik davrda yaratilgan portretlarning gipsdan nushalari va inson qiyofasining turli ko'rinishlari - portret, inson jussasining libosli yarimqomati, libosli to'liq jussa va ikki jussadan tashkil topgan intererdagi guruxli portret hamda ikki jussadan tashkil topgan qomat o'quv vazifalarini bajarish jarayonida kasb mahorati egallashlari talab etiladi, ular bu jarayonda rangtasvir ustasi sifatidas hakllanadilar. Talabalar bu jarayonda turli sharoit va muxitda grafik vositalarda tasvir yaratish mobaynida tasvir qonun qoidalari, manzara va turli ob'ektlarni rangtasvirda tasvirlash nazariyasi, qiyofa hususiyatlari, inson anatomiyasi plastik sifatlari, tuzilishi hamda ularni ma'lum tabiiy yoki sun'iy yorug'lik man'bai bilan yoritilgan sharoitda badiiy bo'yyoqlar orqali tasvirlashni o'rgashishdan iborat.

## **Fanni o'zlashtirish uchun zarur bo`lgan boshlang`ich bilimlar**

	Talabalar rangtasvir fanida kompozitsion muhitni tashkil etish. Oddiy qalamda oddiy rasm chiza olishi, rangda (akovarel) ishlay olish malakasiga ega
--	--

	bo`lishi kerak.	
<b>Ta'lim natijalari</b>		
	<i>Bilimlar jihatidan</i>	
TN 1	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tasvirni formatga nisbatan joylashtirishni bilish;</li> <li>- Postanovkani tuslar orqali tasvirlay olish;</li> <li>- Postanovkani yozishda ranglarning mutonosibligini a`lo darajada ko`rsata olish. Issiq va sovuq ranglarning qo'llay olishi;</li> </ul>	
TN 2	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tasvirlangan detallar (ko'z, burun, kuloq, lab, atributlar)ni bajarish;</li> <li>- Odam boshi tasvirini xarakterini, o'xshashligini va psixologik tomonlarini ko`rsatib berish;</li> <li>- Berilgan mavzu bo'yicha postanovkalarni tugallangan holatga olib kelish;</li> <li>- Natyurmort rangtasvirini bajarish;</li> </ul>	
<i>Ko`nikmalar jihatidan</i>		
TN3	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Qo'l, oyoq tasvrini rangtasvirda "lepka" yechimida tasvirlay olish;</li> <li>- Rangtasvirda yarim qomatning anatomic tuzilishini "lepka" yechimida tasvirlay olish;</li> <li>- Postanovkani tuslar orqali tasvirlay olish;</li> <li>- Postanovkani yozishda ranglarning mutonosibligini ko`rsata olish. Issiq va sovuq ranglarning qo'llay olishi;</li> <li>- Tasvirlangan detallar (ko'z, burun, kuloq, lab, qo'l, qo'lpanjasi) bajarish;</li> </ul>	
TN4	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Libossiz qomat tasviri tuslar orqali (tonalnoy razbor) mukammal darajada topilganligi. Issiq va sovuq ranglarda tasvirlay olish;</li> <li>- Berilgan mavzu bo'yicha postanovkalarni tugallangan holatiga olib kelish;</li> <li>- Etyudlarni yuqori son va sifat mutonosibligini bajarish;</li> <li>- Manzaraning rangtasviri yuqori sifat uyg'unligini bajarish;</li> <li>- Asarlardan mavzuga oid nus'ha ko'chirishni bilish</li> </ul>	
<b>Fanning mazmuni</b>		
<b>Mashg`ulotlar shakli: Amaliy (A)</b>		
<b>1- semester 60 soat</b>		
A 1	<b>1-MODUL. "RANGTASVIR " FANIGA KIRISH</b> 1-mavzu. Gipsdan ishlangan o'simlik shakllarining bir qismi, (rozetka) ishtirokida natyurmort (grizayl usulida) ishlash	20
A2	2- mavzu. Kuz in'omlaridan tuzilgan natyurmortlar tasvirlash	20
A3	3- mavzu. Me'morchilik shakllari ishtirokida tuzilgan natyurmortlar ishslash (dekorativ usulda)	20
<b>2- semester 60 soat</b>		
A4	<b>2-MODUL. XONA INTERERIDA VA MATO BUKLAMLARIDAN TUZILGAN NATYURMORTLAR ISHLASH</b> 4- mavzu. Xona intererida va mato buklamlaridan tuzilgan natyurmort	20
A5	5-mavzu. Baxor gullaridan tuzilgan natyurmort dekorativ yo'nalishda (lola, nastarin va turli xil gullar bo'lishi mumkin) tasvirlash	20
A6	6-mavzu. Arxitektura yodgorliklarining bir qismi ishtirokida tuzilgan natyurmortlar ishslash (kapitel)	20
<b>3- semester 90 soat</b>		
A7	<b>3-MODUL. UY- RO'ZG'OR BUYUMLARI VA MEVA YOKI SABZAVOTLARDAN TUZILGAN NATYURMORT ISHLASH</b> 7-mavzu. Uy-ro'zg'or buyumlari va meva yoki sabzavotlardan tuzilgan natyurmort	30

A8	8- mavzu. Monaxrom ranglardan tashkil topgan natyurmort ishlash	30
A9	9-mavzu. Odam boshini (gips boshi ishtrokida grizayl usulida) tasvirlash	30
<b>4- semester 90 soat</b>		
A10	<b>4-MODUL . INTER'ERDA NATYURMORT VA KULOLCHILIK ANJOMLARIDAN TUZILGAN NATYURMORTLAR ISHLASH</b> 10-mavzu. Inter' erda natyurmort va kulolchilik anjomlaridan tuzilgan natyurmort	30
A11	11-mavzu. Gipsdan yasalgan antik boshini tasvirlash (har xil rangdagi gazlamalardan foydalaniladi) Venera, Gerakl.	30
A12	12- mavzu. Uy - ro'zg'or buyumlari va meva yoki sabzovotlardan tuzilagan murakkab natyurmortlar tasvirlash	30
<b>5- semester 120 soat</b>		
A13	<b>5-MODUL. INSON PORTRETTINI ISHLASH</b> 13-mavzu. Inson portretini bosh kiyimida ishlash	30
A14	14-mavzu. Inson portretini yelkalari bilan ishlash (rakurs holatda)	30
A15	15- mavzu. Libosli qomat qo'llari bilan (dekorativ usulda) tasvirlash	30
A16	16- mavzu. Libosli qomat (ixtiyoriy usulda)	30
<b>6- semester 120 soat</b>		
A17	<b>6-MODUL. LIBOSLI AYOL QOMATI NATYURMORT BILAN TASVIRLASH</b> 17- mavzu. Tik turgan erkak qomati mavzu asosida ishlash	30
A18	18- mavzu. Libosli qomat so'zana mato fonida (dekorativ usulda) ishlash	30
A19	19- mavzu. Libosli ayol qomati natyurmort bilan (dekorativ usulda)	30
A20	20- mavzu. Intererda milliy kiyimda odam qomatini shlash	30
<b>7- semester 120 soat</b>		
A21	<b>7 MODUL. LIBOSLI ERKAK QOMATI NATYURMORT BILAN TASVIRLASH</b> 21- mavzu. Mavzuli odam qomatini (teatr liboslari asosida) tasvirlash	
A22	22- mavzu. Libosli erkak qomati natyurmort bilan (dekorativ usulda)	30
A23	23- mavzu. Intererda milliy kiyimda odam qomatini shlash	30
A24	24- mavzu. Mavzuli odam qomatini (teatr liboslari asosida) tasvirlash	30
<b>Mashg' ulotlar shakli: Mustaqil ta'lif 660 soat</b>		
1	Portret etyudlarni yaratish.	55
2	Har xil ruhiy holatdagi portret rangtasviri	55
3	Odamlar guruhi - qoralamalari va etyudlar..	55
4	Xayvonot dunyosidan qoralamalar va etyudlar	55
5	Tabiat shakllaridan etyudlar.(kushlar, xayvonlar, o'simliklar).	55
6	Manzaraning rangtasviri (tong, kunduzi, tunholati).	55
7	Yakka daraxtning va daraxtlar guruhining etyudlari.	55
8	Natyurmortlar rangtasviri.	55
9	Har xil ruhiy holatdagi portretlar rangtasviri.	55
10	Mato va kiyimdagи buklamalarni.	55
11	Asarlardan mavzuga oid nusha ko'chirish.	55
12	Tarixiy obrazlar. Portret rangtasviri ishlash	55

## V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- guruhlarda ishlash;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.  
amaliy mashg'ulotlarni bajarish;

## VI. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishlarni topshirish.

<b>Nº</b>	<b>Asosiy adabiyotlar:</b>
1	S. Abdirasilov, N. Tolipov – Rangtasvir . darslik Toshkent 2019
2	Toshmurodov. M.E. "Rangtasvir amaliyoti" (dastgohli rangtasvir), O'quv-uslubiyqo'llanma. Elektronresurs. T., "Chashmaprint", 2010 y.
3	S. Abdirasilov, N. Tolipov – Dasgohli rangtasvir o'quv qo'llanma T- 2008
4	S. Abdirasilov, N. Tolipov, N. Oripova –Rangtasvir o'quv qo'llanma T- 2006
5	B. Boymetov – Portret qalamtasviri o'quv qo'llanma Toshkent 2001

  

<b>Qo'shimcha adabiyotlar</b>	
6	BedaG.V. "Jivopis" vpomohnachinayushimxudojnikom , Metodicheskoye posobie. M., "Iskusstvo", 1971. 128 s. il. 1 ekz.
7	5.Volkov N.N "Kompozitsiya v jivopisi", Metodicheskoye posobie.M., "Iskusstvo", 1977 g. 264 s. 2 ekz.
8	6. KiplikD.I. "Texnikajivopisi", Elektronno'yresursM., "SvarogiK.", 1999 g

## Axborot manbaalari:

- [www.sarafan.ru](http://www.sarafan.ru);
- [www.ocinka.ru](http://www.ocinka.ru);
- [www.textile-press.ru](http://www.textile-press.ru);
- [www.vgik.info](http://www.vgik.info);
- [www.pencil.nm.ru](http://www.pencil.nm.ru);
- [www.msus.org](http://www.msus.org);
- [www.artacademu.spd.ru](http://www.artacademu.spd.ru);
- [www.nbgf.intal.uz](http://www.nbgf.intal.uz);
- [www.ZiyoNet.uz](http://www.ZiyoNet.uz);
- [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz);
- <http://G'G'surikov-vuz.comG>.

**Talabanining fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilish mezoni**  
**Talabaning kreditlarni to'plash tartibi**

№	Baholash turi	Topshiriqlar turi	Topshiriqlar soni	Har bir topshiriq uchun ajratil gan ball	Jami ball	Joriy, oraliq va yakuniy baholash uchun jami ball	Joriy, oraliq va yakuniy baholash uchun saralash bali	
							Ball	Baho
1	Joriy baholash	Amaliy, mashg'ulot topshiriqlari	3	5	15	40	0-23	2
		Mustaqil ish topshiriqlari	5	5	25		24-27	3
	Oraliq baholash	1-ON Amaliy mashg'ulot tarzda natura qo'yiladi	1	8	8		28-35	4
		2-ON Amaliy mashg'ulot tarzda natura qo'yiladi	1	8	8		36-40	5
		*Mustaqil ish topshiriqlari inobatga olinadi	1	4	4		0-11	2
2	Jami				60	60	12-13	3
	Yakuniy baholash	1-ON Amaliy mashg'ulot tarzda natura qo'yiladi	1	40	40	40	14-17	4
							18-20	5
							0-23	2
							24-27	3
3	Jami				100	100	28-35	4
	36-40	5						

**Izoh:** Joriy va Oraliq baholashda jami 36 baldan past  $JN+ON=36$  (-60%, 2 baho) olgan talaba yakuniy baholashga kiritilmaydi.

Guliston davlat universitetida talabalar bilimini nazorat qilish fanning xususiyatidan kelib chiqib joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Tegishli fan bo'yicha mas'ul professor-o'qituvchilar o'quv dasturi (sillabus)da ushbu fandan o'tkaziladigan nazorat turlari, baholash mezonlari va ballar taqsimotini fanning xususiyatidan kelib chiqib, batafsil ko'rsatib o'tishlari lozim.

Talabalar bilimi 100 ballik tizimda quyidagi jadvalda keltirilgan mezonlar asosida baholanadi:

### Talabalar bilimini baholash mezonlari

<b>100 ballik</b>	<b>5 baholi</b>	<b>Baholash mezonlari</b>
90-100	5	“Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi, fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega” deb topilganda
70-89,9	4	“Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda” ega deb topilganda
60-69,9	3	“Talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda” deb topilganda
0-59,9	2	“Talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi, fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas” deb topilganda

**Joriy nazorat** – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Talabalarning dars mashg‘ulotlariga ishtirok etishlari majburiy hisoblanadi. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, keys stadi, kazus yoki fabula vaziyatli topshiriqlar, loyiha, kurs ishi, uy vazifalarini bajarish, mustaqil ta’lim topshiriqlari va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin. Bunda joriy nazorat uchun ajratilgan ball miqdori **40 %** ni tashkil etadi.

**Oraliq nazorat** – semestr davomida fan dasturi (sillabus)ning tegishli (fanning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikmalari darajasini aniqlash va baholash maqsadida o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘tkaziladi. Oraliq nazorat soni (bir semestrda ikki martadan ko‘p o‘tkazilmasligi lozim) va platformada interaktiv topshiriq elementidan foydalanilgan holda (yozma, og‘zaki, test, taqdimot, kitobxonlik va hokazo) shaklida fanga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Oraliq nazorat turi har bir fan bo‘yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o‘tkazilishi mumkin. Bunda oraliq nazorat uchun ajratilgan ball miqdori **20 %** ni tashkil etadi.

Oraliq nazorat turini o‘tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib, tegishli fan o‘qituvchisi tomonidan belgilanib, o‘quv dasturi (sillabus)da ko‘rsatib o‘tilishi lozim. Oraliq nazorat topshiriqlari tegishli fan

uchun mas'ul professor- o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

**Yakuniy nazorat** turi semestr yakunida fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat asosan "yozma ish", "test", "og'zaki", amaliy ish yoki fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin. Yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli tegishli fan uchun mas'ul professor- o'qituvchilar tomonidan belgilanadi. Bunda yakuniy nazorat uchun ajratilgan ball miqdori **40 %**ni tashkil etadi.

Dars mashg'ulotlaridagi ishtiroki, joriy nazorat va oraliq nazorat uchun ajratilgan jami ballar (60 ball)ning kamida 60 % to'play olmagan talabaga yakuniy nazoratga kirishga ruxsat berilmaydi.

### Fan o`qituvchisi to`g`risida ma'lumot

<b>Muallif</b>	I.X. Mirzakulov – amaliy san'at va dizayn kafedrasi o`qituvchisi
<b>E-mail</b>	<a href="mailto:Islommirzaqulov42@gmail.com">Islommirzaqulov42@gmail.com</a>
<b>Tashkilot</b>	Guliston davlat universiteti "San'atshunoslik fakulteti"
<b>Taqrizchilar</b>	E. Kayumov – Amaliy san'at va dizayn kafedrasi o`qituvchisi B. Usmonov - Amaliy san'at va dizayn kafedrasi o`qituvchisi

Mazkur sillabus Guliston davlat universitet o'quv-uslubiy Kengashi tamonidan (2023 yil 30 avgustdagi 1-sonli bayonnomasi) tasdiqlangan.

Mazkur sillabus Amaliy san'at va dizayn kafedrasi tamonidan (2023 yil 28 avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayonnomasi) maqullangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i :  I.Xudoyberdiyev

Sanatshunoslik fakulteti dekani:  A.Babadjanov

GulDU "Amaliy san'at va dizayn" kafedrasi mudiri:  A. Berikbayev

Tuzuvchi:  I.Mirzaqulov